

va bozor beqarorligi darajasidan kelib chiqib tanlanadi yoki kombinatsiyalanadi. Eng an'anaviy yondashuv - inkremental (ya'ni "o'tgan davrdan" kelib chiqib) budjetlashtirish bo'lib, unda o'tgan yil ma'lumotlari keyingi davr uchun tuzatilib qabul qilinadi; amaliyotda bu usul budjetdagi kamchiliklarni kelgusi davrlarga "ko'chirish" xavfini kuchaytiradi va boshqaruvni sustlashtiradi. Shu sababli zamonaviy ishlar inkremental budjetlashtirishning cheklovlarini ochiq qayd etadi va uni isloh qilish zaruratini ko'rsatadi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:***

1. *Boymirzayev D.N. Risklarni boshqarish. O'quv qo'llanma. – Namangan: "MASHRAB" nashriyoti, 2024. – 224 b.*

2. *Ismanov I.N., Davlyatova G.M., Buzrukxonov S.M. Biznesni rejalashtirish. Darslik. 2020, 412 b.*

3. *Mahkamova M.A., Nabiyev D.X. Menejment. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Shafoat Nur Fayz, 2022. - 288 b.*

4. *Алферова И.А. Стоимостно-ориентированное управление горнодобышающим предприятием на основе бюджетной модели. Автореф. дис. ... канд. экон. наук. – Москва: Московский государственный горный университет, 2011. – С. 25*

5. *Галкин А.А. Методологические основы повышения эффективности развития предприятий путем внедрения бюджетирования как элемента системы управления: дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05 / Институт бизнеса, психологии и управления. – Москва, 2005.*

## **TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG'OZLAR BILAN OPERATSIYALARINI SAMARALI TASHKIL ETISH**

***Ubaydullaev Dilshod Zuvaytovich***

*O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Qashqadaryo viloyati bosh boshqarmasi boshlig'i, PhD*

Jahonda bank qimmatli qog'ozlarini chiqarish orqali bank resurs bazasini kengaytirish, investitsion faoliyat samaradorligini oshirish, "yashil" loyihalarga resurslarni yo'naltirish, investitsion portfelni diversifikatsiyalash, banklarning moliya bozorlarida ishtirokini faollashtirishga qaratilgan investitsion siyosat ishlab chiqish va uni yuritish orqali bank banklar rentabelligini oshirishga alohida e'tibor qatilmoqda. Banklar investitsion portfelni samarali boshqarish, investitsion faoliyat bilan bog'liq risklarni minimallashtirish, banklarning dividend siyosati va foiz siyosatini optimallashtirishda mijoz manfaatlarini rag'batlantirishga urg'u berish, zamonaviy moliyaviy instrumentlarning fond bozorlarida kengayishi bo'yicha qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilganligiga qaramasdan, banklarning investitsion portfelida harakatsiz turub qolgan aktivlarni kamaytirish, yuqori likvidli kompaniyalar qimmatli qog'ozlariga

resurslarni yo'naltirish, xorijiy banklar bilan hamkorlikda yirik investitsiya loyihalarini o'z vaqtida moliyalashtirish masalalari kompleks va tizimli o'rganilmaganligi, ushbu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurligini ko'rsatmoqda.

O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshirish va banklar faoliyatini keng transformatsiya qilish jarayonlarini yakunlash, ustav kapitalini xalqaro me'yorlar asosida oshirib borish orqali qimmatli qog'ozlar bozoridagi faolligini yanada kuchaytirish, strategik xorijiy investorlarni jalb qilish va banklarning xalqaro moliya bozorlariga bosqichma-bosqich integratsiya qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, "faol investitsiya siyosati mamlakatimiz iqtisodiyotida raqobatbardoshlikni oshirishning muhim moliyaviy omili bo'lib xizmat qiladi. Respublikaning iqtisodiyot tarmoqlariga yuqori texnologiyalarni keng joriy etish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni kengaytirish orqali korxonalarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, eksportni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish, shuningdek, investitsiyalarni tizimli rejalashtirish orqali investitsiya faolligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar o'zlashtirilishining manzilli dasturi ko'rsatilgan"<sup>295</sup> kabi muhim vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarni o'z vaqtida ijrosini samarali amalga oshirishda, tijorat banklarining investitsion potfeli sifatini va amalga oshirilishi rejalashtirilgan loyihalarning samaradorligini baholash amaliyotini yaxshilash, "yashil" loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan qimmatli qog'ozlarga investitsiya kiritishni rag'batlantirish, tavakkalchiliklarni boshqarish usullarini takomillashtirish orqali bank daromadlari hajmini oshirishning o'ziga xos jihatlarni inobatga olgan holda sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etish dolzarb masala hisoblanadi.

Tijorat banklari faoliyatini rivojlantirish bozor mexanizmini yaratish uchun zarur shartdir. Iqtisodiy o'zgarish jarayoni bank tizimini isloh qilish bilan boshlandi. Ushbu soha bugungi kunda ham jadal rivojlanmoqda. Bank tizimi mamlakat iqtisodiyotining eng muhim va ajralmas tuzilmalaridan biridir. Bank tizimining moliya bozoridagi o'rnini tahlil qilib, iqtisodchi olimlar tijorat banklarining turli funksiyalarini ajratib ko'rsatishadi. Asosiy nuqtai nazar bu jarayonda shundan iboratki, bank ikkita asosiy funksiyani bajaradi: kredit emissiyasi mexanizmi orqali mamlakat iqtisodiyotini zarur to'lov vositalari bilan ta'minlash; jam g'armalarni investitsiyalarga aylantirish, bu shartli ravishda ikkiga bo'linadi - xo'jalik yurituvchi subyektlardan, aholidan bo'sh pul mablag'larini to'plash va jalb qilingan resurslarni kreditga va to'lov shartlari bilan ta'minlashga xizmat qiladi.

---

<sup>295</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to'g'risida"gi PQ-72-sonli qarori.

Qimmatli qog'ozlar bozoriga sarmoya kiritish orqali banklar o'z portfellarini diversifikatsiya qilishlari mumkin, bu esa an'anaviy kreditlash va foiz daromadlariga bog'liqlikni kamaytiradi. Bu, ayniqsa, banklarning an'anaviy daromadlari o'zgaruvchan bo'lishi mumkin bo'lgan iqtisodiy o'zgarishlar davrida juda muhimdir. Qimmatli qog'ozlar bozoridagi investitsiyalar odatdagi doimiy daromadli qimmatli qog'ozlarga nisbatan yuqori daromad keltirishi mumkin, bu esa banklarga umumiy rentabelligini oshirishga imkon beradi. Banklarning investitsion faolligini oshirish fond bozorining likvidligini oshirishi, uni boshqa investorlar uchun yanada jozibador qilishi va potensial ravishda barqaror kapital bozoriga olib kelishi mumkin. Banklarning fond bozorlaridagi ishtiroki narxlarni barqarorlashtirishga va o'zgaruvchanlikni kamaytirishga yordam beradi, bu esa investitsiyalar uchun yanada qulay sharoit yaratadi. Tijorat banklari fond bozorida tobora faollashib borayotganligi sababli, ular ko'pincha investorlarning turli yehtiyolarini qondiradigan investitsiya fondlari yoki aksiyalarga bog'langan obligatsiyalar kabi yangi moliyaviy mahsulotlarni yaratish orqali innovatsiyalarni amalga oshiradilar. Banklar o'rtasida investitsiya faolligining oshishi raqobatni kuchaytiradi, bu esa iste'molchilar uchun xizmatlar va mahsulotlarning yaxshilani-shiga olib kelishi mumkin. Qimmatli qog'ozlarga sarmoya kiritish orqali banklar o'sish yoki kengayishga intilayotgan kompaniyalarga kerakli kapitalni taqdim yetadilar. Bunday qo'llab-quvvatlash innovatsiyalar va ish o'rinlarini yaratishga yordam beradi, bu yesa iqtisodiy o'zgarishlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Qimmatli qog'ozlarga sarmoya kiritadigan banklar, shuningdek, rivojlanayotgan tarmoqlar yoki startaplarga qiziqish bildirishi, tadbirkorlik va texnologik taraqqiyotga hissa qo'shishi mumkin.

Fond bozorida tijorat banklarining faoliyati qimmatli qog'ozlar va moliyaviy vositalar savdosini virtualizatsiya qilish, qimmatli qog'ozlar sertifikatlarini elektron formatga o'tkazish, elektron raqamli imzoni joriy etish, kiritilgan ma'lumotlarni tasdiqlashning biometrik usullari va barqaror iqtisodiy rivojlanish nuqtai nazaridan fond bozorida tijorat banklarining ahamiyati moliyaviy vositachilik masalalari bo'yicha barcha jihatlarini qamrab oladi. Tijorat banklarining fond bozoridagi investitsiya faoliyati to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq bo'lib, bunda aksiyalar, obligatsiyalar, derivativlar va boshqa qimmatli qog'ozlar kabi moliyaviy vositalarga investitsiyalardan foyda olishga qaratilgan turli xil operatsiyalar va strategiyalarni o'z ichiga oladi. Tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozorida aksiyalar va obligatsiyalarni sotib oluvchilar va sotuvchilar sifatida harakat qilishlari mumkin, bu esa sotib olish va sotish narxlari o'rtasidagi farqdan kelib chiqadi.

Tijorat banklarining fond bozori orqali investitsion faolligini oshirishda loyihalarini moliyalashtirishga aholi mablag'larini keng jalb etish uchun iqtisodiy shart sharoitlarni yanada yaxshilash va xo'jalik subyektlarining o'z mablag'larini qayta investitsiyalashni rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Respublikamizda investitsion bozor infrastrukturasi rivojlantirishga oid qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishni va

takomillashtirishni, shuningdek, investorlarning bo'sh mablag'larini unga muhtoj bo'lgan subyektlarga foydali va qulay bo'lgan shartlarda yo'naltiruvchi moliyaviy institutlarni ko'plab tashkil etishni talab etadi. Fond bozorida investitsion faollikni oshirishning asosiy vazifasi faqat aksiyalar bozorini rivojlantirish emas, balki investorlar sarmoyalarini, pul mablag'larini bir joyga jamlab, ularni turli investitsiya maqsadlarida ishlatishdan, taqsimlash va qayta taqsimlashdan iborat. Tijorat banklarining fond bozoridagi faolligi moliya tizimining barqarorligi va iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo, banklar fond bozorida aksiyalar va obligatsiyalar chiqarish orqali uzoq muddatli moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa ularning kapital bazasini mustahkamlash, likvidlik darajasini oshirish va kreditlash hajmini kengaytirishga xizmat qiladi. Masalan, banklar o'z aksiyalarini fond birjalarida joylashtirish orqali investorlar doirasini kengaytiradi va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtiradi.

Fond bozoridagi faollik banklarga investitsion faoliyatni diversifikatsiya qilish imkonini ham beradi. Tijorat banklari davlat va korporativ qimmatli qog'ozlarga sarmoya kiritish orqali risklarni taqsimlaydi va qo'shimcha daromad manbalarini shakllantiradi. Bu jarayon moliyaviy vositachilik funksiyasini yanada kengaytiradi. Bundan tashqari, fond bozorida faol ishtirok etish banklarning investitsiya loyihalarini moliyalashtirish salohiyatini oshiradi. Banklar anderrayter, broker yoki diler sifatida qatnashib, korxonalar obligatsiyalarini joylashtirishda vositachilik qiladi. Natijada, real sektor uchun muqobil moliyalashtirish manbalari yaratiladi. Bu esa iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirishga xizmat qiladi.

Xalqaro tajribada JPMorgan Chase yoki Deutsche Bank kabi yirik banklar investitsion bank xizmatlari orqali global kapital bozorlarida faol qatnashadi. Ular IPO tashkil etish, obligatsiyalar emissiyasi, aktivlarni boshqarish va treyding operatsiyalarini amalga oshiradi. Bu esa banklarga yuqori daromad olish bilan birga, xalqaro moliya tizimida o'z mavqeini mustahkamlash imkonini beradi. Shuningdek, fond bozoridagi faollik banklar uchun shaffoflik va ochiqlik darajasini oshiradi. Qimmatli qog'ozlar chiqaruvchi banklar moliyaviy hisobotlarni e'lon qilishga majbur bo'ladi, bu esa investorlar ishonchini mustahkamlaydi. Natijada, bank tizimiga bo'lgan ishonch ortadi va jamg'armalar investitsiyaga faol yo'naltiriladi.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarining fond bozoridagi faolligi kapitalni samarali taqsimlash, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, investitsiya jarayonlarini rag'batlantirish hamda iqtisodiyotning barqaror o'sishiga xizmat qiladi. Bu jarayon bank tizimi va fond bozori o'rtasidagi uzviy aloqani yanada kuchaytiradi.